

1. Murakkab kesimli gap qaysi javobda berilgan?

- A) Yaxshi kishi doim yaxshilik topadi.
- B) Bitta bulbul qanchadan-qancha odamning dilini xush qiladi.
- C) Buyuk alloma Abdurahmon Jomiy «Bahoriston»ida saxovat va karamni ulug'laydi.
- D) Inson bolasi hamma rizq-ro'zini yerdan topadi.

2. Qaysi gapda tushum kelishigi qo'shimchasi noo'rin qo'llangan?

- A) Men seni esladim entikib, yonib, Men seni izladim baridan tonib.
- B) Bo'ron ko'kka bo'y cho'zgan daraxtlarni ildizi bilan qo'porib tashlay boshladi.
- C) Oldingi notiqlarni ham yo'lda qoldirib aravani shunday olib qochdiki, haligi odamni tanib bo'lmay qoldi.
- D) Abduqodir Hayitmetov Alisher Navoiy otlig' bog'ni bog'boni edi, bir umr shu muhtasham bog'da sayr qildi.

3. Qaysi so'zlar orfografik jihatdan xato yozilgan?

- A) melodrama, hushyor
- B) as'hob, mus'haf
- C) kuydurmoq, uchchala
- D) valakisalang, vacuum

4. Qaysi javobda miqdor-daraja bildiruvchi ravishlar berilgan?

- A) yayov, ancha, astoydil
- B) birpasda, jim, xiyla
- C) biroz, behad, majburan
- D) jindak, ko'p, xiyol

5. *Osmon yum-yum yig'ladi.*

Ushbu gapda ma'no ko'chishning qaysi turi mavjud?

- A) sinekdoxa
- B) ma'no ko'chishi mavjud emas
- C) metafora
- D) metonimiya

6. *O'zimni moziyning bag'riga urdim*

Va shu on shukrona aytib qaytdim men. Kimdir ko'rmay ketgan baxtni men ko'rdim, Kimdir aytmay ketgan so'zni aytdim men.

She'rda olmoshning nechta turi qo'llangan?


- A) 3 ta
- B) 2 ta
- C) 4 ta
- D) 1 ta

7. Qaysi gapda qo'llangan modal so'z xulosalash ma'nosini bildiradi?

- A) Kanizak, aftidan, shuni aytmoqchi emas edi.
- B) Afsuski, besh qo'l barobar emas.
- C) Demak, biz ulug' odamlarning farzandlarimiz.
- D) Darhaqiqat, siz to'g'ri ish qildingiz.

- 8.** Badiiy uslubga xos gapni belgilang.
 A) Inson baxtidek ko'rkamlik, tabiatan ulug'lik, sog'lomlik, xushnudlik hammasi onadan.
 B) Nodira 1792-yil Andijon hokimi Rahmonquliboy oilasida tug'ildi.
 C) Aytadilarki, otning go'shti issiqlik bo'lib, me'dani kuchli qiladi, ko'z suvini ko'paytiradi.
 D) Yuz falajiga uchragan odam musicha go'shtini yesa tuzaladi.
- 9.** Qaysi gapda kuchaytiruv-ta'kid yuklamasi qatnashgan?
 A) Go'yo sharpa tushganday bo'ldi.
 B) Sizni yo'qlab kelgandir.
 C) Har yili bahor kelganda, hatto toshga kirar jon.
 D) Shu mакtabda o'qiysizmi?
- 10.** Qaysi gapda gap bo'laklari noto'g'ri joylashgan?
 A) Ona qalbi bitmas-tuganmas mo'jizalar manbaidir.
 B) Suv bilan ekin o'sar, tarbiya bilan — odam.
 C) Nafis chayqaladi bir tup na'matak.
 D) Aql ulug'likka, aqlsizlik esa tubanlikka yetaklaydi.
- 11.** Qo'sh tengsizlik ko'rinishida ifodalang. 44 soni 55 sonidan kichik, lekin 33 sonida katta;
 A) $33 < 44 < 55$ B) $33 < 55 > 44$
 C) $55 < 44 < 33$ D) $44 < 55 < 33$


- 12.** Kesmaning bir uchi cheksiz davom ettirilsa, qanday shakl hosil bo'ladi?
 A) Kesma B) Nur
 C) To'g'ri chiziq D) Tekislik
- 13.** Saidaning onasi nonni 2 ta bo'lakka bo'lib sendvich tayyorlaydi. Agar bitta qutida 24 bo'lak bo'lsa, 2 ta to'la va bitta yarim quti non bo'laklari yordamida nechta sendvich tayyorlashi mumkin?
 A) 6 B) 12 C) 24 D) 30
- 14.** Qaysi nisbatlar proporsiya tashkil qiladi?
 1) $13:5,2$ va $19,5:7,8$; 3) $10,5:2$ va $31,5:6$; 2) $7,5:2,5$ va $2,5:1,5$;
 4) $1:2$ va $1,6:3,5$.
 A) 1; 3 B) 1; 2
 C) 3; 4 D) 2; 4
- 15.** Davronda 36 ta shirinlik bor edi. U shirinliklarni ukalariga teng bo'lib berdi. Davronning ukalarining soni nechta bo'lishi mumkin emas?
 A) 2 B) 3 C) 4 D) 5
- 16.** Katta uchburchak yuzi, kichik kulrang uchburchak yuzidan necha marta katta?



17. Anvarda bir nechta kulrang kvadratchalar bor. U katta kvadrat yasash uchun bo'laklarni terib chiqyapti. Shu jarayonni davom ettirib katta kvadrat yasash uchun yana nechta kulrang kvadratchalar kerak?

- A) 16 B) 9 C) 7 D) 8

18. Asrorda o'lchamlari 36 dm va 60 dm bo'lgan gulqog'oz bor. Afsuski, uni qanchadir qismi qirqib olingan. Agar gulqog'oz butun bo'lganda u nechta oyning tasvirini ko'rishi mumkin edi?



19. Malika, Diyora, Sevara va Nozima bitta yilda tug'ilishgan.

Ularning tug'ilgan kunlari 20-Fevral, 12-Aprel, 12-May va 25-May ga to'g'ri keladi. Lekin mos ravishda emas. Malika va Diyora bitta oyda tug'ilishgan. Malika va Sevara turli oyning bir xil kunida tug'ilishgan. Ularning ichidan eng kattasini toping.

- A) Malika B) Diyora
C) Nozima D) Sevara

20. Harfli ifodaning qiymatini toping.

$$128 - b, \quad b = 59$$

A) 53 B) 79 C) 69 D) 75

21. 1917-yil 14-mart kuni quyidagilardan qaysi biri tashkil qilingan?

- A) "Sho'royi Ulamo"
B) "Ittifoqi Muslimin"
C) "Sho'royi Islomiya"
D) "Kraymussovet"

22. Qaysi javobda 1908 – 1910-yillarda barpo etilgan inshoot berilgan?

- A) Nurullaboy saroyi
B) Sitorayi Mohi Xosa
C) Islomxo'ja minorasi
D) Sirdaryo kanali

23. Turkiston Muxtoriyati hukumatida Obidjon Mahmudov qaysi lavozimga saylangan?

- A) yer-suv boyliklari vaziri
B) oziq-ovqat vaziri

C) tashqi ishlar vaziri
D) moliya vaziri

24. Ulug'bek rasadxonasi qoldiqlari qachon topilgan?
A) 1900-yilda B) 1909-yilda
C) 1915-yilda D) 1908-yilda

25. Kim tomonidan 1919-yil oktyabr oyida Pomirning Ergashtom ovulida Farg'ona muvaqqat muxtoriyat hukumatini tuzilgan?
A) Shermuhammadbek
B) Katta Ergash
C) Mulla Abduqahhor
D) Madaminbek

26. Buxoro amirligidagi cho'p puli solig'i qanday soliq turi hisoblanadi?
A) o'tloqlardan foydalanganlik uchun yig'iladigan soliq
B) turar joylardan olinadigan soliq
C) jarchining foydasiga yig'iladigan soliq
D) polizlardan olinadigan soliq

27. Bahrombek bilan Ochilbek nomli qo'rboshilar 1918-1923-yillarda qaysi hududdagi istiqlolchilik harakatiga rahbarlik qilgan?
A) Samarqand B) Toshkent
C) Farg'ona D) Qo'qon

28. XIX asr oxirlarida Amudaryo bo'limida yashovchi

qoraqalpoqlar aholining necha foizini tashkil qilar edi?
A) 4,5 foiz B) 3,8 foiz
C) 48,6 foiz D) 32,4 foiz

29. Qo'qon xonligida xon yerlarida ishlovchi ijrarachi dehqonlar nima deb atalgan?
A) chorikorlar
B) korandalar
C) bevatanlar
D) mardikorlar

30. Quyidagi soliqlardan qaysi biri amir Shohmurod davrida joriy qilingan?
A) to'la B) tanobona
C) qo'shpuli D) jul